II QISM. QATORLAR NAZARIYASIDAN MASHQLAR

I BOB. SONLI QATORLAR

1-§. Sonli qatorlar

1-misol. Umumiy hadi $a_n = \dfrac{1}{(2n-1)(2n+1)}$ bo'lgan qator yig'indisini toping.

Yechish. n ga ketma-ket $1, 2, 3, \ldots,$ qiymatlar berib quyidagi

$$\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 7}+\ldots+\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}+\ldots=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}$$

qatorni hosil qilamiz. Qatorning birinchi n ta hadlarining yig'indisi

$$S_n=\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 7}+\ldots+\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}$$

ga teng. S_n xususiy yig'indini soddaroq ko'rinishga keltirish uchun qatorning umumiy $a_n = \dfrac{1}{(2n-1)(2n+1)}$ hadini aniqmas koeffitsientlar usuli bo'yicha sodda kasrlarga ajratamiz:

$$\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}=\frac{A}{2n-1}+\frac{B}{2n+1}.$$

Umumiy mahraj berib quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$1=2An+A+2Bn-B \;\Rightarrow\; 1=(2A+2B)n+A-B.$$

Bundan

$$\begin{cases} 2A+2B=0 \\ A-B=1 \end{cases}$$

sistemani yozamiz.

Bu sistemadan $A=\frac{1}{2}$, $B=-\frac{1}{2}$ kelib chiqadi.

$$\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}=\frac{1}{2(2n-1)}-\frac{1}{2(2n+1)}=\frac{1}{2}\left(\frac{1}{(2n-1)}-\frac{1}{(2n+1)}\right).$$

Qatorning har bir hadini ikki qo' shiluvchi yig' indisi ko' rinishida ifodalasak, S_n xususiy yig' indi quyidagi ko' rinishga keladi:

$$S_n=\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 7}+...+\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}=\frac{1}{2}\left(1-\frac{1}{3}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{3}-\frac{1}{5}\right)+$$

$$+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{5}-\frac{1}{7}\right)+...+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{2n-3}-\frac{1}{2n-1}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{2n-1}-\frac{1}{2n+1}\right)=\frac{1}{2}\left(1-\frac{1}{2n+1}\right).$$

Qator yig' indisi S ni quyidagicha topamiz

$$S=\lim_{n\to\infty}S_n=\frac{1}{2}\lim_{n\to\infty}\left(1-\frac{1}{2n+1}\right)=\frac{1}{2}.$$

Demak, berilgan qator yaqinlashuvchi bo' lib, qatorning yig' indisi $\frac{1}{2}$ ga teng bo' ladi.

2-misol. $\frac{2}{3}+\frac{4}{5}+\frac{6}{7}+...$ qator yaqinlashishning zaruriy shart bajarilishini tekshiring.

Yechish. Berilgan qatorning umumiy hadi $\frac{2n}{2n+1}$ ko' rinishda bo' ladi. U holda

$$\frac{2}{3}+\frac{4}{5}+\frac{6}{7}+...+\frac{2n}{2n+1}+...,\quad a_n=\frac{2n}{2n+1}.$$

Ma’lumki, qator yaqinlashuvchi bo’lsa, uning umumiy hadi $n\to\infty$ da nolga intiladi. Buni e’tiborga olgan holda

$$\lim_{n\to\infty} a_n = \lim_{n\to\infty}\frac{2n}{2n+1} = \lim_{n\to\infty}\frac{2}{2+\frac{1}{n}} = 1$$

bo’ladi.

Qator yaqinlashishining zaruriy sharti bajarilmadi, shuning uchun berilgan qator uzoqlashuvchi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi qatorlarinng yig’indilarini toping.

1. $\frac{1}{3}+\frac{1}{6}+\frac{1}{12}+\ldots+\frac{1}{3\cdot 2^{n-1}}+\ldots$ Javob: $\frac{2}{3}$
2. $\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{2\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 4}+\ldots+\frac{1}{n(n+1)}+\ldots$ Javob: 1
3. $\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}+\frac{1}{2\cdot 3\cdot 4}+\frac{1}{3\cdot 4\cdot 5}+\ldots+$
$+\frac{1}{n(n+1)(n+2)}+\ldots$ Javob: $\frac{1}{4}$
4. $\frac{3}{1^2\cdot 2^2}+\frac{5}{2^2\cdot 3^2}+\ldots+\frac{2n+1}{n^2(n+1)^2}+\ldots$ Javob: 1
5. $\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{2\cdot 4}+\frac{1}{3\cdot 5}+\ldots$ Javob: $\frac{3}{4}$
6. $\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 7}+\ldots$ Javob: $\frac{1}{2}$

Quyidagi qatorlarning yaqinlashishini zaruriy sharti yordamida tekshiring.

1. $\frac{2}{1}+\frac{5}{8}+\frac{10}{27}+...+\frac{n^2+1}{n^2}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

2. $\frac{1}{2}+\frac{3}{4}+\frac{5}{6}+...+\frac{2n-1}{2n}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

3. $\cos 1+\cos\frac{1}{2}+\cos\frac{1}{3}+...+\cos\frac{1}{n}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

4. $\ln\frac{2}{1}+\ln\frac{3}{2}+\ln\frac{4}{3}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

5. $\frac{2}{3}+\frac{3}{5}+\frac{4}{7}+...+\frac{n+1}{2n+1}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

6. $(1+1)+\left(1+\frac{1}{2}\right)^2+\left(1+\frac{1}{3}\right)^3+...$ Javob: uzoqlashuvchi

2-§. Musbat hadli qatorlar

Quyidagi qatorlarning yaqinlashish yoki uzoqlashishini tekshiring.

1-misol. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n\cdot 3^{n-1}}$.

Yechish. Berilgan qatorning $a_n=\frac{1}{n\cdot 3^{n-1}}$ umumiy hadi yaqinlashuvchi bo’lgan quyidagi $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{3^{n-1}}$ geometrik $\left(q=\frac{1}{3}<1\right)$ qatorning umumiy hadidan kichik, ya’ni

$a_n = \frac{1}{n\cdot 3^{n-1}} \le \frac{1}{3^{n-1}} = b_n$ solishtirish alomatiga asosan, berilgan qator yaqinlashuvchi bo'ladi.

2-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{2n-1}$.

Yechish. Umumiy hadi $a_n = \frac{1}{2n-1}$ bo'lgan berilgan qatorni umumiy hadi $b_n = \frac{1}{n}$ bo'lgan uzoqlashuvchi $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n}$ garmonik qator bilan solishtiramiz.

Ikkinchi solishtirish alomatiga asosan

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_n}{b_n} = \lim_{n\to\infty} \frac{\frac{1}{2n-1}}{\frac{1}{n}} = \lim_{n\to\infty} \frac{n}{2n-1} = \frac{1}{2} \neq 0$$

bo'lgani uchun berilgan qator ham uzoqlashuvchi bo'ladi.

3-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{n}{3^n}$.

Yechish. Bu qatorning umumiy hadi $a_n = \frac{n}{3^n}$, keyingi hadi $a_{n+1} = \frac{n+1}{3^{n+1}}$. Dalamber alomatiga asosan

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} = \lim_{n\to\infty} \frac{\frac{n+1}{3^{n+1}}}{\frac{n}{3^n}} = \lim_{n\to\infty} \frac{(n+1)\cdot 3^n}{n\cdot 3^{n+1}} = \frac{1}{3}\lim_{n\to\infty} \frac{(n+1)}{n} = \frac{1}{3} < 1$$

bo'lgani uchun berilgan qator yaqinlashuvchi bo'ladi.

4-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{3^n \cdot n!}{n^n}$.

Yechish. Bu yerda $a_n = \dfrac{3^n \cdot n!}{n^n}$, $a_{n+1} = \dfrac{3^{n+1} \cdot (n+1)!}{(n+1)^{n+1}}$.

Dalamber alomatiga asosan

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_{n+1}}{a_n} = \lim_{n\to\infty} \frac{3^{n+1}(n+1)!}{(n+1)^{n+1}} : \frac{3^n \cdot n!}{n^n} = \lim_{n\to\infty} \frac{3^{n+1}(n+1)!}{(n+1)^{n+1}} \cdot \frac{n^n}{3^n \cdot n!} =$$

$$= \lim_{n\to\infty} \frac{3n^n}{(n+1)^n} = 3\lim_{n\to\infty}\left(\frac{n}{n+1}\right)^n = 3\lim_{n\to\infty} \frac{1}{\left(1+\frac{1}{n}\right)^n} = \frac{3}{\lim\limits_{n\to\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^n} = \frac{3}{e} > 1$$

bo'lgani uchun berilgan qator uzoqlashuvchi.

5-misol. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\left(\dfrac{n}{n+1}\right)^{n^2}$.

Yechish. Koshining radikal alomatiga ko'ra

$$\lim_{n\to\infty}\sqrt[n]{a_n} = \lim_{n\to\infty}\sqrt[n]{\left(\frac{n}{n+1}\right)^{n^2}} = \lim_{n\to\infty}\left(\frac{n}{n+1}\right)^n = \lim_{n\to\infty}\frac{1}{\left(1+\frac{1}{n}\right)^n} = \frac{1}{e} < 1$$

bo'lgani uchun qator yaqinlashuvchi.

6-misol. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{1}{n^\alpha}$ (Dirixle qatori) qatorni yaqinlashishga tekshiring.

Yechish. Qatorni yaqinlashishga tekshirish uchun Koshining integral alomatidan foydalanamiz.

$f(x) = \dfrac{1}{x^\alpha}$ deb olib, ushbu $\int\limits_1^{\infty}\dfrac{dx}{x^\alpha}$ xosmas integralni tekshiramiz.

$$\int_1^{\infty}\frac{dx}{x^{\alpha}}=\lim_{b\to\infty}\int_1^{b}x^{-\alpha}dx=\lim_{b\to\infty}\begin{cases}\frac{1}{1-\alpha}\left(b^{-\alpha}-1\right), & \alpha\neq 1\\ \ln b, & \alpha=1\end{cases}=$$

$$=\begin{cases}\frac{1}{\alpha-1}, & \text{agar } \alpha>1 \text{ bo'lsa,} & \text{yaqinlashuvchi}\\ \infty, & \text{agar } \alpha<1 \text{ bo'lsa,} & \text{uzoqlashuvchi}\\ \infty, & \text{agar } \alpha=1 \text{ bo'lsa,} & \text{uzoqlashuvchi}\end{cases}$$

Demak, xosmas integral $\alpha>1$ da yaqinlashuvchi, $\alpha\leq 1$ da uzoqlashuvchi . Koshining integral alomatiga ko’ra $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^{\alpha}}$ qator $\alpha>1$ da yaqinlashuvchi, $\alpha\leq 1$ da uzoqlashuvchi bo’ladi. $\alpha=1$ bo’lganda $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}$ garmonik qator hosil bo’ladi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Solishtirish alomatlaridan foydalanib quyidagi qatorlarning yaqinlashishi yoki uzoqlashishini ko’rsating.

1. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n\cdot 2^{n}}$ Javob: yaqinlashuvchi
2. $\sum_{n=2}^{\infty}\frac{\ln n}{n}$ Javob: uzoqlashuvchi
3. $\frac{1}{\sqrt{2}}+\frac{1}{\sqrt{2\left(1+2^{2}\right)}}+\frac{1}{\sqrt{3\left(1+3^{2}\right)}}+\ldots+$

$+\frac{1}{\sqrt{n\left(1+n^{2}\right)}}+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

4. $\sin\frac{\pi}{3}+\sin\frac{\pi}{9}+...+\sin\frac{\pi}{3^n}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

5. $\frac{1}{\sqrt{1\cdot 2}}+\frac{1}{\sqrt{2\cdot 3}}+\frac{1}{\sqrt{3\cdot 4}}+\ldots+\frac{1}{\sqrt{n(n+1)}}+\ldots$ Javob: uzoqlashuvchi

6. $1+\frac{1+2}{1+2^2}+\frac{1+3}{1+3^2}+\ldots+\frac{1+n}{1+n^2}+\ldots$ Javob: uzoqlashuvchi

7. $\sin 1+\sin\frac{1}{2}+...+\sin\frac{1}{n}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

8. $\ln\frac{3}{2}+\ln\frac{2^2+2}{2^2+1}+\ln\frac{3^2+2}{3^2+1}+\ldots+\ln\frac{n^2+2}{n^2+1}+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

9. $2\sin\frac{\pi}{3}+2^2\sin\frac{\pi}{3^2}+\ldots+2^n\sin\frac{\pi}{3^n}+\ldots$ Javob: uzoqlashuvchi

Dalamber va Koshi alomatlaridan foydalanib quyidagi qatorlarning yaqinlashish yoki uzoqlashishini tekshiring.

1. $\frac{1}{2}+\frac{2}{2^2}+\frac{3}{2^3}+...+\frac{n}{2^n}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

2. $\frac{5}{1!}+\frac{5^2}{2!}+\frac{5^3}{3!}+...+\frac{5^n}{n!}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

3. $1+\frac{2^2}{2!}+\frac{3^3}{3!}+...+\frac{n^n}{n!}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

4. $2+\left(\frac{2+1}{2\cdot 2-1}\right)^2+\left(\frac{3+1}{2\cdot 3-1}\right)^3+\ldots+\left(\frac{n+1}{2n-1}\right)^n+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

5. $\frac{2}{3}+\frac{\left(\frac{3}{2}\right)^4}{9}+...+\frac{\left(\frac{n+1}{n}\right)^{n^2}}{3^n}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

6. $2+\frac{2\cdot 5}{1\cdot 5}+\frac{2\cdot 5\cdot 8}{1\cdot 5\cdot 9}+\ ...\ +$

$+\frac{2\cdot 5\cdot 8\cdot\ ...\ \cdot(3n-1)}{1\cdot 5\cdot 9\cdot\ ...\ \cdot(4n-3)}+\ ...$ Javob: yaqinlashuvchi

7. $1+\frac{1\cdot 4}{3!!}+\frac{1\cdot 4\cdot 7}{5!!}+\ ...\ +$

$+\frac{1\cdot 4\cdot 7\cdot\ ...\ \cdot(3n-2)}{(2n-1)!!}+\ ...$ Javob: uzoqlashuvchi

8. $\sin\frac{\pi}{2}+\sin^2\frac{\pi}{4}+...+\sin^n\frac{\pi}{2n}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

9. $\frac{3}{2^{-1}}+\frac{3^3}{2^2}+\frac{3^5}{2^5}+...+\frac{3^{2n+1}}{2^{3n-1}}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

10. $\frac{1}{\sqrt{3}}+\frac{5}{\sqrt{2\cdot 3^2}}+\frac{9}{\sqrt{3\cdot 3^3}}+...+\frac{4n-3}{\sqrt{n\cdot 3^n}}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

Koshining integral alomatidan foydalanib, quyidagi qatorlarning yaqinlashishini tekshiring.

1. $\frac{1}{2(\ln 2)^2}+\frac{1}{3(\ln 3)^2}+\ ...\ +\frac{1}{n(\ln n)^2}+\ ..$ Javob: yaqinlashuvchi

2. $1+\frac{1}{\sqrt{5}}+\frac{1}{\sqrt{9}}+...+\frac{1}{\sqrt{4n+1}}+...$ Javob: uzoqlashuvchi

3. $\frac{2}{3+1^2}+\frac{2}{3+2^2}+\frac{2}{3+3^2}+...+\frac{2}{3+n^2}+...$ Javob: yaqinlashuvchi

4. $\left(\frac{1+1}{1+1^2}\right)^2+\left(\frac{1+2}{1+2^2}\right)^2+\ldots+\left(\frac{1+n}{1+n^2}\right)^2+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

5. $\sum_{n=2}^{\infty}\frac{\ln n}{n^2}$ Javob: yaqinlashuvchi

6. $\frac{e^{-\sqrt{1}}}{\sqrt{1}}+\frac{e^{-\sqrt{2}}}{\sqrt{2}}+\frac{e^{-\sqrt{3}}}{\sqrt{3}}+\ldots+\frac{e^{-\sqrt{n}}}{\sqrt{n}}+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

Quyidagi qatorlarni yaqinlashishga tekshiring.

1. $1+\frac{1}{\sqrt{2}}+\frac{1}{\sqrt{3}}+\ldots+\frac{1}{\sqrt{n}}+\ldots$ Javob: uzoqlashuvchi

2. $1+\frac{1}{2^2}+\frac{1}{3^2}+\ldots+\frac{1}{n^2}+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

3. $\frac{1}{2^3}+\frac{2}{3^3}+\frac{3}{4^3}+\ldots+\frac{n}{(n+1)^3}+\ldots$ Javob: yaqinlashuvchi

4. $\sum_{n=2}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{n(n-1)}}$ Javob: uzoqlashuvchi

5. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n}{2n-1}$ Javob: uzoqlashuvchi

6. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n!}{3^{n-1}}$ Javob: uzoqlashuvchi

7. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2n-1}{\left(\sqrt{3}\right)^n}$ Javob: yaqinlashuvchi

8. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n^2}{2n^2+1}$ Javob: uzoqlashuvchi

9. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n^3}{e^n}$ Javob: yaqinlashuvchi

10. $\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1+n}{1+n^2}\right)^2$ Javob: yaqinlashuvchi

11. $\sum_{n=0}^{\infty}\frac{1}{\sqrt{4n+1}}$ Javob: uzoqlashuvchi

12. $\sum_{n=3}^{\infty}\frac{n}{n^4-9}$ Javob: yaqinlashuvchi

13. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2}{2^n}\left(\frac{n+1}{n}\right)^{n^2}$ Javob: uzoqlashuvchi

3-§. Ishoralari o'zgaruvchi qatorlar

Quyidagi misollarda ishoralari o'zgaruvchi qatorlarning absolyut, shartli yaqinlashishi yoki uzoqlashishini tekshiring.

1-misol. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\sin n\alpha}{3^n}$ $(\alpha$ – ихтиёрий сон$)$.

Yechish. Berilgan qator hadlarining absolyut qiymatlaridan yangi qator tuzamiz

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{|\sin n\alpha|}{3^n}$$

va bu qatorni $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{3^n}$ qator bilan taqqoslaymiz. Ma'lumki $\frac{|\sin n\alpha|}{3^n}\le\frac{1}{3^n}$. Geometrik qator $\left(q=\frac{1}{3}<1\right)$ $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{3^n}$ yaqinlashuvchi bo'lgani uchun, musbat hadli qatorlarni solishtirish alomatiga ko'ra qator yaqinlashuvchi bo'ladi. Demak, berilgan qator absolyut yaqinlashuvchidir.

2-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \cos \frac{n\pi}{4}$.

Yechish. Berilgan ishoralari o'zgaruvchi qator uchun qator yaqinlashishining zaruriy sharti bajarilmaydi. Haqiqatan,

$$\lim_{n\to\infty} a_n = \lim_{n\to\infty} \cos \frac{n\pi}{4}$$

limit mavjud emas. Demak, berilgan qator uzoqlashuvchi.

3-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{(-1)^{n-1}}{n \cdot 2^n}$.

Yechish. Ishoralari almashinuvchi berilgan qatorning hadlari absolyut qiymat bo'yicha monoton kamayadi, ya'ni

$$\frac{1}{2} > \frac{1}{2 \cdot 2^2} > \frac{1}{3 \cdot 2^3} > \ldots$$

va

$$\lim_{n\to\infty} \frac{1}{n \cdot 2^n} = 0.$$

Leybnis teoremasiga asosan berilgan qator yaqinlashuvchi. Qatorning absolyut yoki shartli yaqinlashishini tekshirish uchun berilgan qator hadlarining absolyut qiymatlaridan $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n \cdot 2^n}$ qator tuzamiz. Bu qatorning yaqinlashishini Dalamber alomatiga ko'ra tekshiramiz.

$$\lim_{n\to\infty}\frac{a_{n+1}}{a_n}=\lim_{n\to\infty}\frac{\dfrac{1}{(n+1)\cdot 2^{n+1}}}{\dfrac{1}{n\cdot 2^n}}=\lim_{n\to\infty}\frac{n\cdot 2^n}{(n+1)\cdot 2^{n+1}}=\lim_{n\to\infty}\frac{n}{2n+2}=\frac{1}{2}<1\cdot$$

Demak, musbat hadli qator yaqinlashuvchi. Shuning uchun, berilgan qator absolyut yaqinlashuvchi bo’ladi.

4-misol. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^{n-1}}{2n-1}$.

Yechish. Berilgan qator Leybnis teoremasi shartlarini qanoatlantiradi, ya’ni

$$1>\frac{1}{3}>\frac{1}{5}>\ldots$$

va

$$\lim_{n\to\infty}\frac{1}{2n-1}=0\cdot$$

Demak, berilgan qator yaqinlashuvchi. Berilgan qatorning absolyut yoki shartli yaqinlashishini tekshiramiz. Buning uchun qator hadlarining absolyut qiymatlaridan tuzilgan $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2n-1}$ qatorni tekshiramiz. Koshining integral alomatidan foydalanamiz.

$$\int_1^{\infty}\frac{dx}{2x-1}=\frac{1}{2}\lim_{n\to\infty}\int_1^{n}\frac{d(2x-1)}{2x-1}=\frac{1}{2}\lim_{n\to\infty}\ln(2x-1)\Big|_1^n=\frac{1}{2}\lim_{n\to\infty}\ln(2n-1)=+\infty$$

bo’lgani uchun xosmas integral uzoqlashuvchi. Demak, musbat hadli $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2n-1}$ qator uzoqlashuvchi. U holda berilgan qator shartli yaqinlashuvchi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

1. $1-\frac{1}{2}+\frac{1}{3}-\frac{1}{4}+\ldots$ Javob: shartli yaqinlashuvchi

2. $\frac{1}{\ln 2}-\frac{1}{\ln 3}+\frac{1}{\ln 4}-\ldots$ Javob: shartli yaqinlashuvchi

3. $1-\frac{1}{\sqrt{2}}+\frac{1}{\sqrt{3}}-\ldots+(-1)^{n-1}\frac{1}{\sqrt{n}}+\ldots$ Javob: shartli yaqinlashuvchi

4. $\frac{\sin\alpha}{1}+\frac{\sin 2\alpha}{2^2}+\frac{\sin 3\alpha}{3^2}+\ldots$ Javob: absolyut yaqinlashuvchi

5. $-\frac{3}{4}+\left(\frac{5}{7}\right)^2-\left(\frac{7}{10}\right)^3+\ldots+$

$+(-1)^n\left(\frac{2n+1}{3n+1}\right)^n+\ldots$ Javob: absolyut yaqinlashuvchi

6. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\cos n\alpha}{(\ln 10)^n}$ Javob: absolyut yaqinlashuvchi

7. $\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n+1}\frac{2n+1}{n(n+1)}$ Javob: absolyut yaqinlashuvchi

8. $\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n-1}\cos\frac{\pi}{3n}$ Javob: uzoqlashuvchi

9. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^{n-1}}{(n+1)a^{2n}}$ Javob: $\begin{cases}|a|>1\text{da abs. yaqinlash.}\\ |a|<1\text{da uzoqlashuvchi}\end{cases}$

10. $1-\frac{1}{3}+\frac{1}{2}-\frac{1}{3^3}+\frac{1}{2^2}-\frac{1}{3^5}+\ldots$ Javob: absolyut yaqinlashuvchi

11. $\frac{1}{2}\left(1-\frac{1}{2}+\frac{1}{3}-\frac{1}{4}+\ldots\right)=1-\frac{1}{2}-\frac{1}{4}+\frac{1}{3}-\frac{1}{6}-\frac{1}{8}+\ldots$ tenglikni isbotlang.

II BOB. FUNKSIONAL VA DARAJALI QATORLAR

1-§. Funksional qatorlar

1-misol. Quyidagi funksional qatorning yaqinlashish sohasini toping:

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n(x+3)^n}.$$

Yechish. Dalamber alomatidan foydalanamiz.

$$u_n(x) = \frac{1}{n(x+3)^n}\ ;\ u_{n+1}(x) = \frac{1}{(n+1)(x+3)^{n+1}},$$

$$l = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{u_{n+1}(x)}{u_n(x)}\right| = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{n(x+3)^n}{(n+1)(x+3)^{n+1}}\right| = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{n}{(n+1)(x+3)}\right| =$$

$$= \frac{1}{|x+3|}\lim_{n\to\infty}\frac{n}{n+1} = \frac{1}{|x+3|}.$$

Dalamber alomatiga ko'ra qator yaqinlashishi uchun $l<1$ bo'lishi kerak. Bu holda

$$\frac{1}{|x+3|} < 1 \ \Rightarrow\ |x+3| > 1 \Rightarrow\ x+3 > 1$$

va

$$x+3 < -1 \Rightarrow x > -2 \ \text{ва}\ \ x < -4.$$

Demak, qatorning yaqinlashish sohasi $(-\infty;\,-4)\cup(-2;\,+\infty)$ dan iborat bo'ladi. Berilgan qatorni topilgan interval chegaralarida tekshiramiz.

$x=-4$ bo'lganda $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n(-1)^n}$ ishoralari almashinuvchi qator hosil bo'lib, bu qator Leybnis alomatiga ko'ra yaqinlashuvchi bo'ladi. $x=-2$ bo'lganda $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}$ uzoqlashuvchi bo'lgan garmonik qator hosil bo'ladi.

Shunday qilib, berilgan qatorning yaqinlashish sohasi $(-\infty;\,-4]\cup(-2;\,+\infty)$ dan iborat.

2-misol. Quyidagi

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left(8-x^2\right)^n$$

funksional qatorning yaqinlashish sohasini toping.

Yechish. Berilgan funksional qatorni mahraji $q=8-x^2$ bo'lgan geometrik qator deb qarash mumkin. $|q|=\left|8-x^2\right|<1$ bo'lganda ma'lumki qator yaqinlashuvchi bo'ladi. $\left|8-x^2\right|<1$ tengsizlikni echamiz. $-1<8-x^2<1$ yoki $7<x^2<9$, bundan $\sqrt{7}<|x|<3$. Qatorning yaqinlashish sohasi $\left(-3;\,-\sqrt{7}\right)\cup\left(\sqrt{7};\,3\right)$ dan iborat. Endi qatorning yaqinlashishini oraliq chegaralarida tekshirib ko'ramiz: $x=-3$, $x=-\sqrt{7}$, $x=\sqrt{7}$ va $x=3$ bo'lganda $\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^n$ va $\sum_{n=1}^{\infty}1^n$ uzoqlashuvchi qatorlar hosil bo'ladi.

Demak, berilgan qatorning yaqinlashish sohasi $\left(-3;\,-\sqrt{7}\right)\cup\left(\sqrt{7};\,3\right)$ dan iborat.

3-misol. Funksional qatorning yaqinlashish sohasini toping:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}\left(\frac{|x|}{n}\right)^{n}, \ x\neq 0.$$

Yechish. Funksional qatorning hadlari sonlar o‘qining $x=0$ dan boshqa barcha nuqtalarda aniqlangan. Agar $x<0$ bo‘lsa $\frac{|x|}{x}=\frac{-x}{x}=-1$ bo‘ladi. U holda ishoralari almashinuvchi $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}\left(\frac{|x|}{n}\right)^{n}=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^{n}}{n}$ qator Leybnis alomatiga ko‘ra yaqinlashuvchi bo‘ladi. Agar $x>0$ bo‘lsa $\frac{|x|}{x}=\frac{x}{x}=1$ bo‘ladi. U holda $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}\left(\frac{|x|}{n}\right)^{n}=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n}$ uzoqlashuvchi garmonik qator hosil bo‘ladi. Demak, berilgan qatorning yaqinlashish sohasi $(-\infty;\,0)$ dan iborat bo‘ladi.

4-misol. Quyidagi funksional qatorning yaqinlashish sohasini toping:

$$\sum_{n=1}^{\infty}2^{n-1}\cdot x^{2n-2}.$$

Yechish. Funksional qatorda x ning barcha natural (x ning toq darajalari qatnashmaydi) darajalari qatnashmaganligi uchun qatorning yaqinlashish sohasini topishda Dalamber alomatidan foydalanamiz.

$$u_n(x)=2^{n-1}\cdot x^{2n-2}\ ;\ u_{n+1}(x)=2^{n}\cdot x^{2n},$$

$$l=\lim_{n\to\infty}\frac{u_{n+1}(x)}{u_n(x)}=\lim_{n\to\infty}\frac{2^n\cdot x^{2n}}{2^{n-1}\cdot x^{2n-2}}=\lim_{n\to\infty}2x^2=2x^2<1\cdot$$

Bundan $x^2<\frac{1}{2}$ yoki $|x|<\frac{1}{\sqrt{2}}$ bo'ladi. Qatorning yaqinlashish intervali $\left(-\frac{1}{\sqrt{2}};\frac{1}{\sqrt{2}}\right)$ bo'ladi.

Endi qator yaqinlashishini intervalning chegaralarida tekshiramiz. $x=\pm\frac{1}{\sqrt{2}}$ bo'lganda

$$1+1+1+\ldots+1+\ldots$$

uzoqlashuvchi qator hosil bo'ladi. Shunday qilib, berilgan darajali qator $\left(-\frac{1}{\sqrt{2}};\frac{1}{\sqrt{2}}\right)$ intervalda yaqinlashuvchi bo'ladi.

5-misol. Quyidagi funksional qatorning yaqinlashish sohasini toping:

$$\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^4+x^2}.$$

Yechish. x ning barcha qiymatlari uchun

$$\frac{1}{n^4+x^2}\le\frac{1}{n^4}$$

tengsizlik o'rinli. Ma'lumki, $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^4}$ qator ($\alpha=4>1$ bo'lganligi uchun, umumlashgan garmonik qatorni eslang) yaqinlashuvchi. $\frac{1}{n^4+x^2}\le\frac{1}{n^4}$ tengsizlik o'rinli bo'lgani uchun Veyershtrass alomatiga ko'ra, berilgan qator x ning barcha qiymatlarida tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

6-misol. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\sin 3^n \pi x}{3^n}$ funksional qatorning tekis yaqinlashishini ko'rsating.

Yechish. $|\sin kx| \le 1$ bo'lgani uchun

$$\left|\frac{\sin 3^n \pi x}{3^n}\right| \le \frac{1}{3^n} \qquad (*)$$

tengsizlik o'rinli. n - hadi $\frac{1}{3^n}$ bo'lgan $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{3^n}$ qator geometrik qator bo'lib, $\left(q=\frac{1}{3}<1\right)$ bo'lganligi uchun yaqinlashuvchi. Yuqoridagi (*) tengsizlik o'rinli bo'lgani uchun, Veyershtrass alomatiga ko'ra, berilgan qator x ning barcha qiymatlarida tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

7-misol. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2^n\sqrt{1+(2n+1)x}}$ $(0 \le x < \infty)$ funksional qatorning tekis yaqinlashishini ko'rsating. Qanday n lar uchun $|\varphi_n(x)| < 0{,}01$ tengsizlik bajariladi?

Yechish. Qaralayotgan oraliqda quyidagi

$$\frac{1}{2^n\sqrt{1+(2n+1)x}} \le \frac{1}{2^n} \qquad (**)$$

tengsizlik o'rinli. Mahraji $q=\frac{1}{2}<1$ bo'lgan $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2^n}$ geometrik qator yaqinlashuvchi bo'lganligi uchun (**) Veyershrass teoremasiga ko'ra, berilgan qator qaralayotgan oraliqda tekis yaqinlashuvchi bo'ladi. Funksional qatorning qoldig'i $r_n(x)=S(x)-S_n(x)$ ni baholash uchun $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2^n}$ sonli qatorning qoldig' i $r_n = S - S_n$ ni baholaymiz. Ma' lumki, $S_n = \frac{\frac{1}{2}-\left(\frac{1}{2}\right)^{n+1}}{1-\frac{1}{2}}$,

$$S = \lim_{n\to\infty} S_n = \lim_{n\to\infty}\frac{\frac{1}{2}-\left(\frac{1}{2}\right)^{n+1}}{1-\frac{1}{2}} = 1$$

va

$$r_n = S - S_n = \frac{1}{2^n}.$$

Berilgan funksional qator $\varphi_n(x)$ qoldig' i $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{1}{2^n}$ sonli qatorning r_n qoldig' idan katta bo' la olmaydi. Shuning uchun $\varphi_n(x) \le \frac{1}{2^n}$ bo' ladi. $\varphi_n(x) < 0{,}01$ tengsizlik o' rinli bo' lishi uchun $\frac{1}{2^n} < 0{,}01$ tengsizlikni echamiz. U holda $2^n > 100$ bo' lib, $n \ge 7$ bo' ladi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi funksional qatorlarning yaqinlashish sohasini toping.

1. $\sum_{n=1}^{\infty} e^{-nx}$ Javob: $(0;\ \infty)$

2. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{1}{x^n}$ Javob: $(-\infty\,;\,-1)\cup(1\,;\,\infty)$

3. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{n!}{x^n}$ Javob: butun sonlar o′ qida uzoqlashuvchi

4. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\left(2-x^2\right)^n$ Javob: $\left(-\sqrt{3}\,;\,-1\right)\cup\left(1\,;\,\sqrt{3}\right)$

5. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}2^n\sin\frac{x}{2^n}$ Javob: $(-\infty\,;+\infty)$

6. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\ln^n x$ Javob: $\left(\frac{1}{e}\,;\,e\right)$

7. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}n\sqrt[3]{\sin^n x}$ Javob: $x_k\neq\frac{\pi}{2}+k\pi\ \left(k=0,\pm1,\pm2,\ldots\right)$

8. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{\cos nx}{n^2}$ Javob: $(-\infty\,;+\infty)$

9. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{n(x+3)}{3^{n+1}}$ Javob: $(-6\,;\,0)$

10. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}(3x)^{n^2}$ Javob: $\left(-\frac{1}{3}\,;\,\frac{1}{3}\right)$

11. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{\cos nx}{n^n}$ Javob: $(-\infty\,;+\infty)$

12. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{\cos 2^n x}{n^2}$ Javob: $(-\infty\,;+\infty)$

13. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{1}{n^2+\cos^2 x}$ Javob: $(-\infty\,;+\infty)$

14. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\frac{(-1)^{n+1}}{x^{2n}+n}$ Javob: $(-\infty\,;\,-1]\cup[1\,;\,\infty)$

2-§. Darajali qatorlar

Quyidagi qatorlarning yaqinlashish radiuslari va yaqinlashish intervallarini toping. Yaqinlashish intervalining chegaralarida qatorning yaqinlashishini tekshiring.

1-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{2^n x^n}{\sqrt{3^n}}$.

Yechish. Bu yerda $a_n = \frac{2^n x^n}{\sqrt{3^n}}$. Qatorning yaqinlashish radiusini quyidagi Koshi alomati yordamida topamiz.

$$R = \frac{1}{\lim\limits_{n\to\infty} \sqrt[n]{a_n}} = \frac{1}{\lim\limits_{n\to\infty} \sqrt[n]{\frac{2^n}{\sqrt{3^n}}}} = \frac{1}{\frac{2}{\sqrt{3}}} = \frac{\sqrt{3}}{2}, \quad R = \frac{\sqrt{3}}{2}.$$

Demak, yaqinlashish intervali $\left(-\frac{\sqrt{3}}{2}; \frac{\sqrt{3}}{2}\right)$ bo' ladi. Intervalning chegaralarida qatorning yaqinlashishini alohida tekshiramiz.

$x = -\frac{\sqrt{3}}{2}$ bo' lsa $\sum_{n=1}^{\infty} (-1)^n$ uzoqlashuvchi qator,

$x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ bo' lsa $\sum_{n=1}^{\infty} 1^n = 1 + 1 + 1 + \ldots + 1 + \ldots$ uzoqlashuvchi qator hosil bo' ladi. Demak berilgan qatorning yaqinlashish intervali $\left(-\frac{\sqrt{3}}{2}; \frac{\sqrt{3}}{2}\right)$ dan iborat.

2-misol. $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{n \cdot 2^n}$.

Yechish. n - hadining koeffitsienti $a_n = \dfrac{1}{n \cdot 2^n}$.

Qatorning yaqinlashish radiusini topish formulaga asosan topamiz:

$$R = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{a_n}{a_{n+1}}\right| = \lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)\cdot 2^{n+1}}{n \cdot 2^n} = \lim_{n\to\infty}\frac{2n+2}{n} = 2,$$

$R = 2$ va yaqinlashish intervali $(-2\ ;\ 2)$ bo' ladi. Interval chegaralarida, ya' ni $x = -2$ va $x = 2$ nuqtalarda tekshiramiz.

$x = -2$ bo' lganda $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{(-1)^n}{n}$ qator hosil bo' ladi va u Leybnis teoremasi shartlarini qanoatlantiradi. Demak, qator $x = -2$ nuqtada yaqinlashadi.

$x = 2$ bo' lganda $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{1}{n}$ uzoqlashuvchi garmonik qator hosil bo' ladi. Shunday qilib, berilgan darajali qator $[-2\ ;\ 2)$ yarim oraliqda yaqinlashuvchi.

3-misol. $\sum\limits_{n=1}^{\infty}\dfrac{4^n}{n^3\left(x^2 - 4x + 7\right)^n}$.

Yechish. Qatorning n-hadi va $(n+1)$- hadini yozamiz:

$$u_n(x) = \frac{4^n}{n^3\left(x^2 - 4x + 7\right)^n}\ ;\ u_{n+1}(x) = \frac{4^{n+1}}{(n+1)^3\left(x^2 - 4x + 7\right)^{n+1}}.$$

$$\lim_{n\to\infty}\left|\frac{u_{n+1}}{u_n}\right| = \lim_{n\to\infty}\left|\frac{4^{n+1}}{(n+1)^3\left(x^2 - 4x + 7\right)^{n+1}} \cdot \frac{n^3\left(x^2 - 4x + 7\right)^n}{4^n}\right| =$$

$$= \lim_{n\to\infty}\left|\frac{4n^3}{(n+1)^3\left(x^2 - 4x + 7\right)}\right| = \frac{4}{x^2 - 4x + 7} < 1$$

Bu tengsizlikni yechib yaqinlashish oralig' ini topamiz.

$$x \in (-\infty,\, 1) \cup (3,\, \infty)$$

Endi qatorni chegaradagi nuqtalarda yaqinlashishini tekshiramiz. $x = 1$ da

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n^3}$$

qator hosil bo' ladi. Bu garmonik qatorning umumlashgan $p = 3$ bo' lgani uchun yaqinlashuvchidir $x = 3$ da

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{n^3}$$

hosil bo' ladi. Bu qator ham yaqinlashuvchi. Demak yaqinlashish oralig' i $(-\infty,\, 1] \cup [3,\, \infty)$.

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi qatorlarning yaqinlashish radiuslari va yaqinlashish intervallarini toping. Yaqinlashish intervalining chegaralarida qatorning yaqinlashishini tekshiring.

1. $\sum\limits_{n=1}^{\infty} x^n$ Javob: $R = 1,\; (-1;\, 1)$
2. $\sum\limits_{n=1}^{\infty} \frac{(x-4)^n}{n}$ Javob: $R = 1,\; [3;\, 5]$
3. $\sum\limits_{n=1}^{\infty} n! \cdot x^n$ Javob: $R = 0,\; x = 0$
4. $\sum\limits_{n=1}^{\infty} (-2)^n x^{2n}$ Javob: $R = \frac{1}{\sqrt{2}},\; \left(-\frac{1}{\sqrt{2}};\, \frac{1}{\sqrt{2}}\right)$
5. $\sum\limits_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{n(n+1)}$ Javob: $R = 1,\; [-1;\, 1]$

6. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{x^n}{\sqrt{n}}$ Javob: $R=1,\ [-1;\,1]$

7. $\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n-1}\frac{(x-2)^{2n}}{n\cdot 4^n}$ Javob: $R=2,\ [0;\,4]$

8. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n}{n+1}\left(\frac{x}{2}\right)^n$ Javob: $R=2,\ (-2;\,2)$

9. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{n^5}{(n+1)!}(x+5)^{2n+1}$ Javob: $R=\infty, (-\infty;\,\infty)$

10. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{10^n x^n}{\sqrt{n}}$ Javob: $R=\frac{1}{10},\ (-0{,}1;0{,}1)$

11. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(2x+1)^n}{3n-2}$ Javob: $R=1, [-1;\,0)$

12. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{(-x)^n}{3^{n-1}\sqrt{n}}$ Javob: $R=3,\ (-3;\,3]$

13. $\sum_{n=1}^{\infty}\frac{2^n\cdot n!}{(2n)!}x^{2n}$ Javob: $R=\infty,\ (-\infty;\,\infty)$

14. $\sum_{n=1}^{\infty}\left(1+\frac{1}{n}\right)^{n^2}x^n$ Javob: $R=\frac{1}{e},\ \left(-\frac{1}{e};\,\frac{1}{e}\right)$

3-§. Teylor va Makloren qatorlari

1-misol. $f(x)=\sin\frac{\pi x}{4}$ funksiyani $x=2$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoying.

Yechish. Berilgan funksiyaning hosilalarini va $x=2$ nuqtadagi qiymatlarini topamiz.

$$f(x)=\sin\frac{\pi x}{4},\quad f(2)=\sin\frac{2\pi}{4}=1,$$

$$f'(x)=\frac{\pi}{4}\cos\frac{\pi x}{4}=\frac{\pi}{4}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+\frac{\pi}{2}\right),\quad f'(2)=\sin\left(\frac{2\pi}{4}+\frac{\pi}{2}\right)=0,$$

$$f''(x)=-\frac{\pi^2}{4^2}\sin\frac{\pi x}{4}=\frac{\pi^2}{4^2}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+2\cdot\frac{\pi}{2}\right),$$

$$f''(2)=\frac{\pi^2}{4^2}\sin\left(\frac{2\pi}{4}+\pi\right)=-\frac{\pi^2}{4^2},$$

$$f'''(x)=-\frac{\pi^3}{4^3}\cos\frac{\pi x}{4}=\frac{\pi^3}{4^3}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+3\cdot\frac{\pi}{2}\right),$$

$$f'''(2)=\frac{\pi^3}{4^3}\sin\left(\frac{2\pi}{4}+\frac{3\pi}{2}\right)=0,$$

$$f^{IV}(x)=\frac{\pi^4}{4^4}\sin\frac{\pi x}{4}=\frac{\pi^4}{4^4}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+4\cdot\frac{\pi}{2}\right),$$

$$f^{IV}(2)=\frac{\pi^4}{4^4}\sin\left(\frac{2\pi}{4}+2\pi\right)=\frac{\pi^4}{4^4},$$

. . . .

$$f^{(2k)}(x)=\frac{\pi^{2k}}{4^{2k}}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+2k\cdot\frac{\pi}{2}\right),$$

$$f^{(2k)}(2)=\frac{\pi^{2k}}{4^{2k}}\sin\left(\frac{2\pi}{4}+k\pi\right)=(-1)^k\,\frac{\pi^{(2k)}}{4^{(2k)}},$$

$$f^{(2k+1)}(x)=\frac{\pi^{2k+1}}{4^{2k+1}}\sin\left(\frac{\pi x}{4}+(2k+1)\cdot\frac{\pi}{2}\right),$$

$$f^{(2k+1)}(2)=\frac{\pi^{2k+1}}{4^{2k+1}}\sin\left(\frac{2\pi}{4}+\frac{(2k+1)\pi}{2}\right)=0.$$

Topilganlarni Teylor qatoriga qo’ysak, quyidagiga ega bo’lamiz

$$\sin\frac{\pi x}{4}=1-\frac{\pi^2}{4^2}\frac{(x-2)^2}{2!}+\frac{\pi^4}{4^4}\frac{(x-2)^4}{4!}-\ldots+$$

$$+\ldots+(-1)^k\,\frac{\pi^{2k}}{4^{2k}}\frac{(x-2)^{2k}}{(2k)!}+\ldots.$$

Bu darajali qatorning yaqinlashish intervalini Dalamber alomati yordamida topamiz.

$$\lim_{k\to\infty}\left|\frac{u_{2k+2}(x)}{u_{2k}(x)}\right|=\lim_{k\to\infty}\left|\frac{\pi^{2k+2}}{4^{2k+2}}\frac{(x-2)^{2k+2}}{(2k+2)!}\cdot\frac{4^{2k}}{\pi^{2k}}\frac{(2k)!}{(x-2)^{2k}}\right|=$$

$$=\frac{\pi^2}{4^2}(x-2)^2\lim_{k\to\infty}\frac{1}{(2k+1)(2k+2)}=0<1$$

bo’lgani uchun x ning barcha qiymatlarida yuqorida berilgan qator yaqinlashuvchi, ya’ni qatorning yaqinlashish intervali $(-\infty\,;\,\infty)$ dan iborat. Endi Teylor formulasidan

$$R_{k+1}=\frac{\pi^{2k+1}}{4^{2k+1}}\frac{(x-2)^{2k+1}}{(2k+1)!}\,\sin\left(\frac{\pi\xi}{4}+(2k+1)\frac{\pi}{2}\right)$$

qoldiq hadni tekshiramiz. Har qanday k va ξ uchun $\left|\sin\left(\frac{\pi\xi}{4}+(2k+1)\frac{\pi}{2}\right)\right|\le 1\quad \lim\limits_{k\to\infty}\left(\frac{\pi}{4}\right)^{2k+1}=0$ o’rinli. Har qanday chekli x uchun

$$\lim_{k\to\infty}\frac{(x-2)^{2k+1}}{(2k+1)!}=0 \cdot$$

U holda $\lim_{k\to\infty}R_{2k+1}(x)=0$. Demak, berilgan $f(x)=\sin\frac{\pi x}{4}$ funksiya ixtiyoriy tartibdagi hosilaga ega va $\lim_{k\to\infty}R_{2k+1}(x)=0$ bo' lgani uchun berilgan funksiya $(x-2)$ ning darajalari bo' yicha Teylor qatoriga yoyiladi.

$$\sin\frac{\pi x}{4}=1-\frac{\pi^2}{4^2}\frac{(x-2)^2}{2!}+\frac{\pi^4}{4^4}\frac{(x-2)^4}{4!}-\ldots+(-1)^k\frac{\pi^{2k}}{4^{2k}}\frac{(x-2)^{2k}}{(2k)!}+\ldots\cdot$$

2-misol. $f(x)=\frac{1}{x}$ funksiyani $x=-3$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoying.

Yechish. Berilgan $f(x)=\frac{1}{x}$ funksiya hosilalarini va ularning $x=-3$ nuqtadagi qiymatlarini topamiz.

$$f(x)=\frac{1}{x}=x^{-1}, \qquad f(-3)=-\frac{1}{3},$$

$$f'(x)=-1\cdot x^{-2}=-\frac{1}{x^2}, \qquad f'(-3)=-\frac{1}{3^2},$$

$$f''(x)=1\cdot 2\cdot x^{-3}=\frac{2!}{x^3}, \qquad f''(-3)=-\frac{2!}{3^3},$$

$$f'''(x)=-1\cdot 2\cdot 3\cdot x^{-4}=-\frac{3!}{x^4}, \qquad f'''(-3)=-\frac{3!}{3^4},$$

. . . .

$$f^{(n)}(x)=(-1)^n\frac{n!}{x^{n+1}}, \qquad f^{(n)}(-3)=-\frac{n!}{3^{n+1}},$$

. . . .

Topilganlarni Teylor qatoriga qo’ysak, $f(x)=\frac{1}{x}$ funksiya uchun Teylor qatori

$$-\frac{1}{3}-\frac{1!}{3^2}\frac{x+3}{1!}-\frac{2!}{3^4}\frac{(x+3)^2}{2!}-\ldots-\frac{n!}{3^{n+1}}\frac{(x+3)^n}{n!}-\ldots=$$

$$=-\frac{1}{3}\left(1+\frac{x+3}{3}+\frac{(x+3)^2}{3^2}+\ldots+\frac{(x+3)^n}{3^n}+\ldots\right).$$

ko’rinishda bo’ladi. Bu qatorning yaqinlashish intervalini Dalamber alomati bo’yicha topamiz.

$$u_n(x)=\frac{(x+3)^n}{3^n}\ ;\ u_{n+1}(x)=\frac{(x+3)^{n+1}}{3^{n+1}}.$$

$$l=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{u_{n+1}(x)}{u_n(x)}\right|=\lim_{n\to\infty}\left|\frac{(x+3)^{n+1}}{3^{n+1}}\cdot\frac{3^n}{(x+3)^n}\right|==\lim_{n\to\infty}\frac{|x+3|}{3}=\frac{|x+3|}{3}<1.$$

Bundan $|x+3|<3$, $-3<x+3<3$, $-6<x<0$. Intervalning chegaralarida, ya’ni $x=-6$, $x=0$ da mos ravishda

$$1-1+1-1+\ldots\ ,\qquad 1+1+1+1+\ldots$$

uzoqlashuvchi qatorlar hosil bo’ladi. Demak, qatorning yaqinlashish intervali $(-6;\,0)$ bo’ladi. Hosil bo’lgan qatorda

$$\lim_{n\to\infty}R_n(x)=0$$

ekanligini oson isbotlash mumkin. Demak, quyidagi tenglik o’rinli:

$$\frac{1}{x}=-\frac{1}{3}\left(1+\frac{x+3}{3}+\frac{(x+3)^2}{3^2}+\ldots+\frac{(x+3)^n}{3^n}+\ldots\right).$$

3-misol. $f(x)=\dfrac{1}{x^2-3x+2}$ funksiyani x ning darajalari bo'yicha Makloren qatoriga yoying.

Yechish. Berilgan funksiyani sodda kasrlarga ajratamiz

$$\frac{1}{x^2-3x+2}=\frac{1}{x-2}-\frac{1}{x-1}.$$

Bu misolni yechish uchun quyidagi binomial qator yoyilmasidan foydalanamiz

$$(1+x)^m=1+mx+\frac{m(m-1)}{2!}x^2+\ldots+\frac{m(m-1)\ldots(m-n+1)}{n!}x^n+\ldots,$$

$(-1<x<1)$.

Demak,

$$\frac{1}{x-2}=\frac{-1}{2\left(1-\frac{x}{2}\right)}=-\frac{1}{2}\left(1+\frac{x}{2}+\frac{x^2}{2^2}+\ldots+\frac{x^n}{2^n}+\ldots\right)=$$

$$=-\frac{1}{2}-\frac{x}{2^2}-\frac{x^2}{2^3}-\ldots-\frac{x^n}{2^{n+1}}-\ldots,\quad (-2<x<2)$$

$$\frac{1}{x-1}=-\frac{1}{1-x}=-(1+x+x^2+\ldots+x^n+\ldots)=$$

$$=-1-x-x^2-\ldots-x^n-\ldots,\quad (-1<x<1).$$

Qatorlarni hadma-had ayirish natijasida quyidagiga ega bo'lamiz

$$\frac{1}{x^2-3x+2}=\frac{1}{x-2}-\frac{1}{x-1}=\frac{1}{2}+\frac{3}{4}x+\ldots+\frac{2^{n+1}-1}{2^{n+1}}x^n+\ldots$$

$(-1<x<1)$.

4-misol. $f(x)=e^{-x}\sin x$ funksiyani Makloren qatoriga yoying.

Echish. Ma’lumki

$$e^x = 1 + x + \frac{1}{2!}x^2 + \ldots + \frac{1}{n!}x^n + \ldots, \quad (-\infty < x < \infty),$$

$$\sin x = x - \frac{x^3}{3!} + \ldots + (-1)^n \frac{x^{2n+1}}{(2n+1)!} + \ldots, (-\infty < x < \infty).$$

U holda

$$e^{-x} = 1 - x + \frac{1}{2!}x^2 - \frac{1}{3!}x^3 + \ldots + (-1)^n \frac{1}{n!}x^n + \ldots .$$

Ko’paytmani aniqlaymiz

$$f(x) = e^{-x}\sin x = \left(1 - x + \frac{1}{2!}x^2 - \frac{1}{3!}x^3 + \ldots + (-1)^n \frac{1}{n!}x^n + \ldots\right) \times$$

$$\times \left(x - \frac{x^3}{3!} + \ldots + (-1)^n \frac{x^{2n+1}}{(2n+1)!} + \ldots\right) = x - x^2 + \frac{1}{3}x^3 - \frac{3}{40}x^5 + \ldots,$$

$(-\infty < x < \infty)$.

5-misol. $f(x) = \ln\sqrt{\dfrac{1+3x}{1-x}}$ funksiyani Makloren qatoriga yoying.

Yechish. Ma’lumki

$$\ln(1+x) = \sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n+1} \frac{x^n}{n}, \qquad (-1 < x < 1).$$

U holda

$$\ln(1+3x) = \sum_{n=1}^{\infty} (-1)^{n+1} \frac{3^n \cdot x^n}{n}, \qquad \left(-\frac{1}{3} < x < \frac{1}{3}\right),$$

$$\ln(1-x) = -\sum_{n=1}^{\infty} \frac{x^n}{n}, \qquad (-1 < x < 1),$$

$$\ln\sqrt{\frac{1+3x}{1-x}} = \frac{1}{2}\left(\ln(1+3x) - \ln(1-x)\right) =$$

$$=\frac{1}{2}\sum_{n=1}^{\infty}\left((-1)^{n+1}3^n+1\right)\frac{x^n}{n}, \qquad \left(-\frac{1}{3}<x<\frac{1}{3}\right).$$

Mustaqil yechish uchun mashqlar

Quyidagi funksiyalarni $(x-x_0)$ ning darajalari bo' yicha Teylor qatoriga yoying.

1. $f(x)=\frac{1}{x};\ x_0=3$

Javob: $f(x)=\frac{1}{3}-\frac{x-3}{3^2}+\ldots+(-1)^{n+1}\frac{(x-3)^{n-1}}{3^n}+\ldots, 0<x<6.$

2. $f(x)=x^2-3x;\quad x_0=1$

Javob: $f(x)=-2+3(x-1)^2+(x-1)^3.$

3. $f(x)=x^4-3x^2;\quad x_0=-2$

Javob: $f(x)=-16(x+2)+20(x+2)^2-8(x+2)^3+(x+2)^4.$

4. $f(x)=\ln(x+2);\quad x_0=1$

Javob: $f(x)=\ln 3+\frac{1}{3}(x-1)-\frac{1}{3^2}\frac{(x-1)}{2}+\frac{1}{3^3}\frac{(x-1)}{3}+\ldots+$

$+\frac{(-1)^{n-1}}{3^n}\frac{(x-1)^{n-1}}{n}+\ldots\ ,\ -2\le x\le 4.$

5. $f(x)=\cos x;\quad x_0=\frac{\pi}{4}$

Javob: $f(x)=\frac{\sqrt{2}}{2}\left(1-\frac{x-\frac{\pi}{4}}{1!}-\frac{\left(x-\frac{\pi}{4}\right)^2}{2!}+\frac{\left(x-\frac{\pi}{4}\right)^3}{3!}+\ldots\right)-\infty\le x\le+\infty.$

6. $f(x)=e^x;\quad x_0=-2$

Javob: $f(x)=e^{-2}\left(1+\frac{x+2}{1!}-\frac{(x+2)^2}{2!}+\ldots+\frac{(x+2)^n}{n!}+\ldots\right)-\infty\leq x\leq+\infty$.

Quyidagi funksiyalarni x ning darajalari bo' yicha Makloren qatoriga yoying.

1. $f(x)=5^x$

Javob: $f(x)=5^x=1+\sum_{n=1}^{\infty}\frac{x^n\ln^n 5}{n!};\quad(-\infty<x<\infty)$.

2. $f(x)=\frac{e^x-1}{x}$

Javob: $f(x)=\frac{e^x-1}{x}=1+\frac{x}{2!}+\ldots+\frac{x^{n-1}}{n!}+\ldots,(-\infty<x<\infty)$.

3. $f(x)=\ln(10+x)$

Javob: $f(x)=\ln(10+x)=\ln 10+\frac{x}{10}-\frac{x^2}{2\cdot 10^2}+\frac{x^3}{3\cdot 10^3}-\ldots+$

$+(-1)^{n-1}\frac{x^n}{n\cdot 10^n}+\ldots,\ (-\infty<x<\infty)$.

4. $f(x)=\sin^2 x$

Javob: $f(x)=\sin^2 x=\frac{2x^2}{2!}-\frac{8x^4}{4!}+\ldots+(-1)^{n-1}\frac{2^{2n-1}x^{2n}}{(2n)!}+\ldots$

$(-\infty<x<\infty)$.

5. $f(x)=\sin^2 x\cos^2 x$

Javob: $f(x)=\sin^2 x\cos^2 x=\sum_{n=1}^{\infty}(-1)^{n+1}\frac{2^{4n-3}x^{2n}}{(2n)!}$,

$\sin^2 x\cos^2 x=\frac{1}{4}\sin^2 2x,\ (-\infty<x<\infty)$.

6. $f(x)=\frac{3}{(1-x)(1+2x)}$

Javob: $f(x)=\frac{3}{(1-x)(1+2x)}=\sum_{n=0}^{\infty}\left(1+(-1)^n 2^{n+1}\right)x^n$,

$$\frac{3}{(1-x)(1+2x)}=\frac{1}{1-x}+\frac{2}{1+2x}\ ,\quad \frac{1}{1-x}=1+x+x^2+\ldots=\sum_{n=0}^{\infty}x^n\ ,$$

$$\frac{1}{1+2x}=1-2x+(2x)^2-\ldots+(-1)^n 2^n\cdot x^n+\ldots=\sum_{n=0}^{\infty}(-1)^n 2^n x^n\ ,$$

$$f(x)=\sum_{n=0}^{\infty}x^n+2\sum_{n=0}^{\infty}(-1)^n 2^n x^n=\sum_{n=0}^{\infty}\left(1+(-1)^n 2^{n+1}\right)x^n\ .$$

7. $f(x)=(1+x)e^{-x}$

Javob: $f(x)=(1+x)e^{-x}=1+\sum_{n=2}^{\infty}(-1)^{n-1}\frac{n-1}{n!}x^n, (-\infty<x<\infty)$.

8. $f(x)=\ln\frac{1+x}{1-x}$

Javob: $f(x)=\ln\frac{1+x}{1-x}=2x+\frac{2x^3}{3}+\ldots+\frac{2x^{2n+1}}{2n+1}+\ldots,(-1<x<1)$

9. $f(x)=\frac{x^2}{\sqrt{1-x^2}}$

Javob: $f(x)=\frac{x^2}{\sqrt{1-x^2}}=x^2+\frac{1}{2}x^2+\ldots+\frac{(2n-1)!!}{(2n)!!}x^{2n-2},$

$(-1<x<1))$

10. $f(x)=\frac{\ln(1+x)}{1+x}$

Javob: $f(x)=\frac{\ln(1+x)}{1+x}=x-\left(1+\frac{1}{2}\right)x^2+\left(1+\frac{1}{2}+\frac{1}{3}\right)x^3-$

$-\left(1+\frac{1}{2}+\frac{1}{3}+\frac{1}{4}\right)x^4+\ldots,\ (-1<x<1)$

11. $f(x)=\ln(1+3x+2x^2)$

Javob: $f(x)=\ln(1+3x+2x^2)=(-1)^{n-1}(1+2^n)\frac{x^n}{n},\ \left(-\frac{1}{2}<x\le\frac{1}{2}\right)$

12. Binomial qator yordami bilan $|x|<1$ bo'lganda

